



## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA ASOSIDA O'QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Zuxridinova Mubinabonu Jamoliddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

[zuxmub@gmail.com](mailto:zuxmub@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kundagi zamonaviy pedagoglarning ona tili darslarida innovatsion-integratsion texnologiyalar asosida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga doir masalalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, kreativlik, fanga oid kompetensiya: nutqiy va lingistik kompetentlik, pedagogik mahorat, innovatsion-integratsion texnologiyalar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы развития предметных компетенций учащихся на основе инновационно-интеграционных технологий на уроках родного языка современных педагогов.

**Ключевые слова:** Компетентность, креативность, предметная компетентность: речевая и языковая компетентность, педагогическое мастерство, инновационно-интеграционные технологии.

**Abstract:** This article will address issues related to the development of competencies on science in students on the basis of innovative and integrative technologies in the native language lessons of modern pedagogues today.

**Keywords:** Competence, creativity, competence in science: speech and linguistic competence, pedagogical skill, innovative-integrative technologies.

**KIRISH:** Hozirgi kunda ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilini dunyoga tanitish va yoyish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning samarali natija ko'rsatishi esa o'z ona tilisini mukammal biladigan yosh avlodni tarbiyalash bilan bevosita bog'liqdir. Oldingi yoshlardan tubdan farq qiluvchi o'zgacha fikrlovchi yoshlarning vujudga kelishi uchun esa boshlang'ich sinflarda o'tiladigan darslar poydevor vazifasini o'taydi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiaviy yondashuvga asoslangan ta'lif o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish boshqa tayanch kompetensiyalarning ham rivojlanishiga yo'l ochadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lifning uzlusizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi predmetli kompetensiyalar shakllantiriladi<sup>1</sup>:

- 1) Nutqiy kompetensiyalar
- 2) Lingistik kompetensiyalar

Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

- 1.tinglab tushunish - eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi

<sup>1</sup> [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru) saytidan olingan

asosiy axborotni, dolzARB mavzularagi radio va teledasturlami tushunish;  
2. gapirish (monologik, dialogik o'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida tadimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);  
3. o'qish - mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni , jumladan gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni o'qish;  
4. yozish - diktant, bayon, insho, esse yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilih)

Lingvistik kompetensiya - bu til birliklaridan qanchalik foydalana olish qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.<sup>2</sup>

**ADABIYOTLAR TAHLILI:**Ona tili darslarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va bunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha respublikamiz pedagoglariidan O.Qurbanova, R.Safarova, K.Qosimova, N. Bekniyazeva, A. Isabayev kabilalar tadqiqotlar olib borganlar.

MDH davlatlaridan esa ushbu mavzuda S. Yurtayev, M. Lvov, N. Algazina, N. Bogoyavlenskiy kabilalar izlanishlar olib borganlar.

Adabiyotlarni o'rganish natijasida quyidagi muammolar nazardan chetda qoldirilganligi aniqlandi:

- ❖ Ona tili darslarini o'qitishda ko'proq an'anaviy darslarga e'tibor qaratilgan;
- ❖ Ona tili darslarida kompetensiyaviy yondashuvga bo'lgan e'tiborning kamligi;
- ❖ Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda lingvistik kompetensiyalarning ahamiyati e'tibordan chetda qoldirilganligi;
- ❖ Ona tili darslarida kompetensiyaviy yondashuvni innovatsiya va integratsiya asosida tashkil qilishda pedagogik mahoratning kamligi;
- ❖ oliy ta'lim muassasalarida ona tili fani pedagog o'qituvchilarini, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga unchalik mos kelmasligi ona tili fanini o'qitishni tubdan isloh qilish va zamonaviy talablarga mos holda yangilashni taqozo etmoqda.

**MATERIALLAR VA USULLAR:**Bugungi kundagi tashkil qilingan 4K metodi orqali dars o'tishga pedagoglarni tayyorlash darslarning samaradorligini oshirish imkoniyatini namoyon qilmoqda. Chunki 4K metodi kompetensiyaviy yondashuvning 4ta muhim aspektini o'zida namoyon qiladi. Ya'ni kollobaratsiya, kreativlik, kritiklik, kommunikatsiya kabi komponentlarni jamlagan ushbu o'quv dasturi ona tili darslarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantiruvchi innovatsion texnologiyalarni taklif qiladi.

Kollaboratsiya va kommunikatsiya aspektlarini darslarda qo'llash asosida bolalarning jamoa bilan ishslashda va muloqot qilishda yuzaga keladigan holatlarda nutqiy kompetentligini ishlata bilih qobiliyatlarini shakllantirishga erishiladi. Kollaboratsiya va kommunikatsiya jarayonida o'quvchilar turli mavzular va holatlar yuzasidan turli til birliklarini ishlatishga muhtoj bo'ladilar va natijada ularni o'rganishga ehtiyoj sezadilar. Bu esa, o'z navbatida, lingvistik kompetensiyalarni ham rivojlantirishga asos bo'ladi.

Kritiklik va kreativlik aspektlari esa pedagog uchun kognitiv fikrlash va darslar mavzusi, o'zlashtirilgan bilimlar yuzasidan kreativ yondashuvga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda qo'l keladi. Ushbu to'rtala komponentlarni integratsiyasi asosida dars o'tish darslarning qiziqarli, kompetentlik asosida va innovatsion tarzda olib borilishini ta'minlaydi.

Fanga oid kompetentlikni shakllantirishda innovatsion-integratsion texnologiyalarni to'g'ri tanlay bilih va oqilona foydalanish o'quv bilish faoliyatining yaxlitligini ta'minlaydi.

<sup>2</sup> [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru) saytidan olingan



O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.<sup>3</sup>

Innovatsion usullarning turli xillari mayjud, Masalan, Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat", Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi", Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak", "Zinama-zina" kabi metodlar barchamizga tanish. Ushbu metodlarni boshqa fan yoki vaziyatlar bilan integratsiya qilish asosida fanga oid kompetensiyalar rivojlantirildi. Misol uchun, "Sinkveyn" metodini boshlang'ich sinflarda matematika fani bilan integratsiyalash mumkin. Bunda metod uchun ajratilgan so'zni matematik atamalar orasidan tanlab olinadi. Masalan "ulush" so'zi sinkveyn uchun ajratilgan atama bo'lsin. Bunda bolalar ulushga oid 2ta sifat yozadi (matematikaga oid, murakkab), va unga oid 3ta fe'l yozadi (ishlanadi, hisoblanadi, bo'laklarni aniqlaydi), unga oid gap yoki ta'rif yozadi (ulush butunning bo'lagidir), oxirida unga sinonim yozadi (kasr). Bunda bolalar til birliklarini ishlashni o'rganishadi va bu lingvistik qobiliyatni rivojlantiradi. Lingvistik qobiliyatni rivojlangan bolada nutqiy kompetentlik o'z-o'zidan shakllana boshlaydi. Chunki til birliklaridan to'g'ri foydalana olish aniq va tushunarli gapira olish, eshitilganlarini tushunib tahlil qila olish, yozma nutq orqali matnlar, insholarda o'z fikrlarini erkin bayon qila olish, o'qiganlarini to'g'ri anglab tahlil qila olish kabi komponentlarni o'zlashtiradi.

**NATIJALAR:**Ona tili darslarida innovatsiya va integratsiya texnologiyalaridan foydalanib nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar

- ✓ O'z fikrini erkin bildira oladi;
- ✓ O'zgalar fikrin to'g'ri anglay oladi;
- ✓ O'qigan ma'lumotni tushunib, hayotga tatiq eta oladi;
- ✓ Turli vaziyatlarga mos ravishda til birliklarini tanlay bilishni o'rganadi;
- ✓ G'aliz so'z va birikmalardan holi yozma nutqi rivojlanadi.
- ✓ Tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha biladi;
- ✓ Ma'lum mavzular doirasida o'zining kognitiv fikrlash darajasini namoyon qila oladi.

**Xulosa** qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, ularni kelajakda o'z faoliyatlari jarayonida, oilada, jamiyatda va barcha jabhalarda o'z o'rnini topishga xizmat qiladi. Darslar davomida kompetensiyalarni o'z o'rnida va to'g'ri, innonatsion kreativ, integratsion va zamonaviy texnologiyalar orqali rivojlantirilishi ko'zlangan natijaga erishishda yuqori samara beradi.

## REFERENCES

1. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education,2020.
2. Olimov S.S. The Innovation process is a priority in the development of pedagogical sciences, - 2021.
3. Sariyev Sh. U Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish nazariyasi va amaliyoti, ped. fan. nomz. diss. –T.:2020
4. Yusupova Sh. J. "Ona tili ta'limi samaradorligini oshirish va ilg'or texnologiyalar joriy qilish" , ped. fan. nomz. diss. –T.:TPDI, 1998
5. K.Qosimova "na tili o'qitish metodikasi" T.:-2009

## WEB – SITES

1. [www.cyberleninka.uz](http://www.cyberleninka.uz)
2. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

<sup>3</sup> Международный научный журнал «Научный Фокус» № 2(100), часть 1, июня, 2023, Temirova Muqaddas Ulug'bek qizi



3. [www.muhaz.org](http://www.muhaz.org)
4. <https://interonconf.org/>
5. <https://uz.goodinternet.org/>

#### JOURNALS

1. Международный научный журнал «Научный Фокус» № 2(100), часть 1, июня, 2023
2. Scientific progress volume 3|ISSUE 5| 2022, ISSN: 2181-1601

worldlyknowledge.uz